



THE RESULTS OF SOVIET SCHOLARS' SCIENTIFIC RESEARCH ON THE ANALYSIS OF THE TAX SYSTEM IN UZBEKISTAN'S AGRICULTURE

Azizbek Aminovich Kamolov

Head of the Department of Preschool and School Education of Kasbi District

Email: kamolovazizjon@gmail.com

Kasbi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Economic Policy, Uzbek SSR, “the period of reconstruction of the national economy,” collectivization, “the tax policy of the Soviet state in the countryside.”

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article examines how the tax policy pursued in Soviet history from 1920 to 1953 became one of the main tools for centralizing the country, strengthening political control, and mobilizing economic resources for the state. The article extensively relies on research conducted by Russian scholars.

SOVET OLIMLARINING O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI SOLIQ TIZIMI TAHLIL ETISHIDAGI ILMIY IZLANISHDAGI NATIJALARI

Azizbek Aminovich Kamolov

Kasbi tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i

kamolovazizjon@gmail.com

Kasbi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi iqtisodiy siyosat, O‘zbekiston SSR, “xalq xo‘jaligining qayta qurish davri”, jamoalashtirish, Sovet davlatining qishloqdagi soliq siyosati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1920–1953 yillarda sovet tarixida amalga oshirilgan soliq siyosati mamlakatni markazlashtirish, siyosiy nazoratni kuchaytirish va iqtisodiy resurslarni davlat tasarrufiga jalb etishning asosiy vositalaridan biriga aylangani yoritiladi. Mavzuni ochishda rus olimlarining ilmiy tadqiqotlari keng qo‘llanilgan.

РЕЗУЛЬТАТЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ СОВЕТСКИХ УЧЁНЫХ ПО АНАЛИЗУ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Азизбек Аминович Камолов

Начальник отдела дошкольного и школьного образования Касбийского района

Электронная почта: kamolovazizjon@gmail.com

Касби, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	новая	Аннотация:	В	данной	статье
экономическая политика, Узбекская ССР, «период реконструкции народного хозяйства», коллективизация, «Налоговая политика советского государства в деревне».	налоговая политика, проводившаяся в советской истории, стала одним из основных инструментов централизации страны, укрепления политического контроля и мобилизации экономических ресурсов в распоряжение государства. При раскрытии темы широко использованы научные исследования российских учёных.				

Kirish. 1920–1953 yillar – sovet tarixida jamiyatning barcha sohalarida keskin oʻzgarishlar va mafkuraviy sinovlar davri boʻlib, bu yillar davomida amalga oshirilgan soliq siyosati mamlakatni markazlashtirish, siyosiy nazoratni mustahkamlash va iqtisodiy resurslarni davlat ixtiyoriga jalb etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Yangi iqtisodiy siyosat (YaIS), kolxozlashtirish, industriallashtirish va urush iqtisodiyoti kabi umumdavlat islohotlari paytida soliqlar nafaqat byudjetni toʻldirish, balki jamiyatni sinfiy qayta qurish maqsadida ham ishlatildi. Sovet davridagi tarixshunoslikda qishloq xoʻjaliklarini soliqqa tortish siyosatiga oid tadqiqotlar asosan marksizm-leninizm nazariyasiga tayanilgan holda yozilgan. Soliq siyosati, ayniqsa, kolxozlashtirish jarayonlari davlat siyosatiga uygʻun holda yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Sovet soliq siyosati boʻyicha tadqiqotlar D. V. Kuzovkov, V. Ya. Alshuler, V. Ya. Grusha, N. L. Kondratev., M. Ya. Zipershteyn[2: № 4–5] Kim[3: Б. 17].T.I. kabi qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan boʻlib, ushbu asarlarda soliq tizimining shakllanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga taʼsiri va davlat siyosatining turli bosqichlardagi xususiyatlari yoritilgan. Masalan, D. V. Kuzovkovning “Pererojdenie naloga v usloviyax SSSR” nomli maqolasi 1929 yilda chop etilgan boʻlib, unda 1920-yillar oxiridagi Sovet iqtisodiy siyosati sharoitida soliq tizimidagi oʻzgarishlarni tahlil qiladi.

V.P. Danilovning “Sovetskaya nalogovaya politika v dokolxoznoy derevne” asarida[4: c152] 1917–1927 yillardagi soliq siyosatining mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy taʼsiri atroflicha yoritilgan. Muallif taʼkidlashicha, soliq siyosati davlatning dehqon xoʻjaliklarini iqtisodiy jihatdan boshqarish va sinfiy tartibni qayta shakllantirish vositasi boʻlgan. Asarda, ayniqsa, yangi iqtisodiy siyosat (NEP) sharoitida joriy qilingan natura va pul soliqlari, ularning dehqonlar

faoliyatiga ta'siri, soliq yukining turli toifalar o'rtasida taqsimlanishi masalalari tahlil etilgan. Danilov fikricha, soliqlar faqat moliyaviy maqsadlarni ko'zlamagan, balki "kulaklar"ni iqtisodiy sustlashtirish va oxir-oqibatda yo'q qilishga xizmat qilgan.

N.E. Glushenko, M.M. Kudyukina, N.A.Ivniskiy, M.V.Meregina, Ye.V. Xarrison tahririda nashr etilgan hujjatlar va materiallar to'plamida[5:C 638] 1928–1937 yillar davrida qishloqda amalga oshirilgan soliq siyosatiga oid rasmiy hujjatlar va tarixiy manbalar chop etilgan. Ushbu materiallar "xalq xo'jaligining rekonstruktiv davri" deb nomlangan bosqichdagi soliq siyosati mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

M.Ya. Zaleskiyning "Nalogovaya politika sovetского gosudarstva v derevne"[6: c.120] asari sovet agrar siyosatida soliq tizimining o'rnini to'laqonli ravishda asoslashga urinadi. Muallif asarda soliqlar siyosatini ijobiy talqinda, sinfiy kurash vositasi va sotsialistik modernizatsiyaning moliyaviy poydevori sifatida tavsiflaydi.

1920–1930-yillardagi qishloq xo'jaligidagi soliq siyosati sovet davlati tomonidan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda ham faol qo'llangan. V.P. Danilov va V.N. Yakovsevskiy asarlarida soliqlar dehqon xo'jaliklarini davlat nazoratiga olish va sinfiy qayta shakllantirish vositasi sifatida baholanadi. Manbalarda soliq siyosati orqali dehqonlarni bo'ysundirish, ularni kolxoz tizimiga yondashtirish jarayoni tahlil qilinsa-da, mahalliy norozilik, repressiya va ijtimoiy oqibatlar aksariyat hollarda chetlab o'tilgan. Demak, bu davrdagi soliq siyosati davlatning mafkuraviy va sinfiy siyosatini amalga oshirishda markaziy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillari soliq siyosati haqida so'z borar ekan, Marina Nikolaevna Gritchining "Nalogovaya politika v godы Velikoy Otechestvennoy voyny"[7:c. 58-66] maqolasida 1941–1945 yillar davomida SSSRda amalga oshirilgan soliq siyosati keng va chuqur tahlil etiladi. Muallif Saratov viloyati misolida mahalliy byudjetlar shakllanishi, soliq tushumlari manbalari va urush davridagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda soliq siyosatining o'rnini ko'rsatadi. Soliqlar va to'lovlar aholiga keskin yuklatilgani, ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida progressiv soliq stavkalari joriy etilgani ta'kidlanadi. Xususan, farzandsizlar uchun alohida soliq, harbiy xizmatda bo'lmaganlar uchun qo'shimcha to'lovlar, aholi daromadlarining ulushi hisobga olingan holda belgilangan soliq stavkalari misolida davlat byudjetiga ichki resurslarni jalb etish mexanizmlari ko'rsatiladi.

N.A.Voznesenskiyning "Voennaya ekonomika v period Otechestvennoy voyny"[8: c. 192] asari Ikkinchi jahon urushi davridagi SSSR iqtisodiyotining tashkil etilishi va uning asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan muhim tadqiqot hisoblanadi. Asar muallifi – iqtisodchi-amaldor,

urush yillarida Dasturlash va Davlat rejalashtirish ishlarini boshqargan shaxs sifatida voqealarni nafaqat nazariy, balki amaliyot nuqtai nazaridan ham tahlil qiladi.

Ya.E. Chadaevning “Ekonomika SSSR v gody Velikoy Otechestvennoy voyny (1941–1945 gg.)”[9:c.494] asari Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSR iqtisodiyotining barcha sohalarini qamrab olgan ilmiy tahlil hisoblanadi. Asar urush sharoitidagi iqtisodiy siyosatni — jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, moliya, mehnat va resurslardan foydalanish sohalaridagi o‘zgarishlarni keng qamrovda yoritadi. Muallif iqtisodiy mobilizatsiya mexanizmlarini, evakuatsiya qilingan ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta joylashtirish jarayoni va ularning samaradorligini dalillarga tayangan holda tahlil qiladi. Asarning alohida ahamiyatli tomoni shundaki, unda mamlakat iqtisodiyotining front ehtiyojlariga moslashuvi, industrial bazaning qayta ishga tushirilishi va urush sanoatining rivojlanishi chuqur tadqiq etilgan.

Uchinchi davr, ikkinchi jahon urushi yakuni bilan toki, I.Stalin vafotigacha bo‘lgan yillarda qishloq ho‘jaliklarilagi soliq siyosatiga oid asarlar tadqiq qilinarkan Yu.S. Torubarovning “Nalogooblojenie naseleniya sovetskoy derevni v 1945-1953gg. (namaterialax Kurskoy oblasti)”[10:C.173] nomli tadqiqoti urushdan keyingi yillarda sovet qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan soliq siyosati mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u Kursk viloyati misolida real faktlar va arxiv materiallari asosida tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O.M.Verbiskayaning “Rossiyskoe krestyanstvo: ot Stalina k Xrushev (seredina 40-x – nachalo 60-x godov)”[11:c.224] asari urushdan keyingi sovet qishloq jamiyatidagi tub o‘zgarishlarni ilmiy tahlil etgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Asarda asosiy e‘tibor Ikkinchi jahon urushi ortidan qishloq xo‘jaligini tiklash, kolxoz va sovxoz tizimini yanada mustahkamlash, krestyanlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash kabi masalalarga qaratilgan.

G.R. Rizaevning “Agrarnaya politika Sovetskoy vlasti v Uzbekistane (1917-1965 gg.)”[12:c.184] nomli monografiyasida 1917–1965 yillar davrida O‘zbekistonda Sovet hokimiyati agrar siyosati, er munosabatlari, kollektivlashtirish, erkinlik va er davlatlashtirish ijtimoiy-siyosiy ifodalari tahlil qilinadi. Asarda 1917–1920-yillardagi revolyusiya, NEP va er siyosatining shakllanishi; 1920-yillardan 1930-yillar davrida agrar islohotlar va kollektivlashtirish bosqichlari; Xalq xo‘jaligiga oid plandashtirish, soliq va moliyaviy munosabatlar; 1941–1965 yillardagi kolxoz va sovxoz tizimi, ilmiy-texnik rivojlanish tahlil qilingan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixshunoslik sohasida yangi bosqich boshlandi. Ideologik yondashuvlar o‘rnini xolis, arxiv manbalariga tayangan ilmiy tahlillar egalladi. Ayniqsa, soliq tizimi va uning tarixi bo‘yicha N.Oblomurodov, F.Tolipov, R.R. Duschanov,

A.Mamanazarov, Sh.Toshmatov tadqiqotchilar tomonidan muhim izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, N.Oblomurodov, F.Tolipov “O‘zbekistonda soliklar tarixi”[13:b.180] nomli asarida 1920–1953 yillar davridagi soliq siyosati quyidagicha izohlangan:

Bu davrdagi soliq siyosati Sovet Ittifoqining umumiy iqtisodiy siyosatiga mos tarzda shakllantirilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi davlat byudjetiga barqaror tushumlarni ta‘minlash va aholi ustidan iqtisodiy-nazorat mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. 1920-yillar boshlarida O‘zbekistonda Sovet hokimiyati joriy qilinishi bilan birga sovetcha moliya va soliq tizimi tatbiq etildi. Soliq tuzilmasi to‘liq markazlashtirilib, mahalliy moliya organlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Moskvaga bo‘ysuntirildi.

1922–1924 yillarda asosan natura shaklidagi soliqlar (ya‘ni mahsulot shaklida to‘lanadigan yig‘imlar) amal qilgan bo‘lib, bu holat qishloq xo‘jaligi mahsulotiga bog‘liq muammolarni keltirib chiqargan. 1924-yildan keyin esa ular bosqichma-bosqich pulli soliqlar bilan almashtirila boshlangan. Yangi iqtisodiy siyosat (YaES) doirasida soliq tizimiga islohotlar kiritilib, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilgan.

1930-yillardan boshlab kolxozlashtirish siyosatiga mos ravishda soliq tizimi ham o‘zgargan. Kolxoz va sovxozlar uchun maxsus soliq rejimlari joriy qilinib, majburiy to‘lovlar davlat rejasiga asoslangan holda amalga oshirilgan. Bu jarayonda hisobot va shaffoflikni kuchaytirishga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa-da, soliq yuki asosan dehqon va kolxozchilar zimmasiga tushgan. Industrializatsiya siyosatini rag‘batlantirish maqsadida xususiy tadbirkorlik faoliyati cheklangan. 1940-yillarga kelib, urush xarajatlarini qoplash uchun soliq siyosati yanada qattiqlashtirildi. Urush yillarida harbiy soliqlar, "harbiy zayomlar" kabi majburiy to‘lovlar joriy qilindi, va xususan shahar aholisi yuqori soliq yuki ostida qoldi. 1940–1950-yillarda ish haqidan ushlab qolinuvchi daromad soliqlari keng tarqalgan. 1950-yillar boshiga kelib, soliq tizimida mavjud muammolar va keskinlik islohotlarni talab eta boshladi. 1953 yilda Iosif Stalinning vafoti soliq siyosatini qayta ko‘rib chiqish va yumshatish uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi.

Xulosa va takliflar. Xullas, 1920–1953 yillar oralig‘idagi soliq siyosati orqali iqtisodiy boshqaruv bilan birga siyosiy nazorat, repressiya va majburlash mexanizmlari amalga oshirilgan. Dehqon xo‘jaliklari, kolxoz va sovxozlar davlat rejasiga muvofiq majburiy soliq to‘lovchilarga aylantirilgan. Soliq tizimi jamiyatda ijtimoiy tenglik yoki bozor rivoji uchun emas, balki davlatning markazlashgan iqtisodiy tizimini saqlab qolish uchun xizmat qilgan. Bu orqali davlat aholi faoliyatini to‘liq nazorat ostiga olgan. Demak, soliq tizimining qishloq xo‘jaligidagi roli, uning iqtisodiy va siyosiy ta‘siri tarixshunoslik uchun muhim tahliliy ob‘ekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Турсунов Х, Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. Т., 1982. 104 бет.
2. Кузовков Д. В. Перерождение налога в условиях СССР // Проблемы экономики. — 1929. — № 4–5.;
3. Ким.Т.И. Советская государственная налоговая политика в период НЭПа (1921–1929 гг.) : автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Краснодар, 2005. – Б. 17
4. Данилов В.П. Советская налоговая политика в доколхозной деревне // Октябрь и советское крестьянство. 1917–1927 гг. – Москва, 1977.
5. Тянут с мужика последние жилы...» Налоговая политика в деревне (1928-1937): Сб. документов и метариалов. / Сост. Н.Е.Глущенко, М.М.Кудюкина, Н.А. Ивницкий и др. – Москва: Собрание, 2007. – 638 с.
6. Залесский М.Я. Налоговая политика советского государства в деревне. – Москва: Госфиниздат, 1940. –120 с.
7. Гритчина М.Н. Налоговая политика в годы великой отечественной войны. Региональная экономика:теория и практика. №40 (2015),- 58-66.
8. Вознесенский Николай Алексеевич. Военная экономика СССР в период Отечественной войны / Н. Вознесенский. - [Москва] : ОГИЗ : Государственное издательство политической литературы, 1947. –с. 192.
9. Чадаев Я. Е., Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941—1945 гг.). —2-е изд., перераб. и доп.— М.: Мысль, 1985. — 494 с.
10. Торубаров Ю.С. Налогообложение населения советской деревни в 1945-1953 гг. : на материалах Курской области : диссертация ... кандидата исторических наук : 07.00.02. –173 с.
11. Вербицкая О.М. Российское крестьянство: от Сталина к Хрущеву, середина 40-х - начало 60-х годов / Рос. АН, Ин-т истории России. М.: Наука, 1992. 224 с.
12. Ризаев Г.Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917–1965 гг.) –Тошкент, «Узбекистан» нашриёти, 1967 йил, – с.185.
13. Обломуродов Н., Толипов Ф. Узбекистонда солиқлар тарихи. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA». 2009. - 180 б.